


3. Chap va o'ng ustundagi so'zlarni o'zaro moslang:

| | | |
|---------|----------------------|--|
| Gazeta | Predmetga oid obyekt | |
| Kamalak | Jarayonga oid obyekt | |
| Sayr | Hodisaga oid obyekt | |
| Stadion | | |
| O'qish | | |
| Ziyofat | | |

4. Quyidagi rasmlar qanday model turiga kirishini ayting:



12-DARS. AMALIY MASHG'ULOT

Quyida iqtisodiy, fizik va biologik jarayonlarning matematik modellariga oid masalalarni tahlil qilamiz.

Masala. O'ylangan sonni topish bo'yicha masala (matematik fokus) modelini tuzing.

Yechish. Har biringiz ixtiyoriy sonni o'ylang va u bilan quyidagi amallarni bajaring:

- 1) o'ylangan son beshga ko'paytirilsin;
- 2) ko'paytmaga bugungi sanaga mos son (yoki ixtiyoriy boshqa son) qo'shilsin;
- 3) hosil bo'lgan yig'indi ikkilantirilsin;
- 4) natijaga joriy yil soni qo'shilsin.

Endi o'ylangan sonni topish matematik fokusiga mos modelni keltirib o'tamiz. Buning uchun, eng avvalo, masalani rasmiylashtirib olamiz:

X – o'ylangan son; **U** – hisoblash natijasi; **N** – sana; **M** – joriy yil.

Demak, yuqorida 1–4-ko'rsatmalarni $U=(X*5+N)*2+M$ formula orqali ifodalash mumkin. Bu formula masala (matematik fokus)ning matematik modeli bo'lib xizmat qiladi va **X** o'zgaruvchiga nisbatan chiziqli tenglamani ifodalaydi.

$X = (U - (M + 2N))/10$ tenglama yechilsa, o'ylangan sonni topish mumkin bo'ladi.

$X = (U - (M + 2N))/10$ formula esa o'ylangan sonni topish algoritmi hisoblanadi.

1. O'lchami 2048 x 1366 bo'lgan ekranدا faqat 4 xil rangli tasvir aks etadi. Ekrandagi axborot hajmini aniqlang.
2. To'rtburchakning perimetri 54 cm va tomonlari 3 : 4 : 5 : 6 kabi nisbatda bo'lsa, uning tomonlari uzunliklarini toping.
3. Massasi 200 g bo'lgan jism 15 m/s tezlik bilan yuqoriga tik ravishda otildi. 1 s dan keyin jismning kinetik energiyasi va otilgan nuqtaga nisbatan potensial energiyasi qancha bo'ladi? $g=10$ m/s deb olinsin.
4. 9 % li eritma hosil qilish uchun 12 % li 200 mg eritmaga necha mg suv qo'shilishi kerak?
5. Toshkentdan yo'lga chiqqan "Afrosiyob" tezyurar poyezdi Buxoroga yetib kelguncha 550 km masofani bosib o'tdi. Ushbu masofa kartada 11 cm ga teng. Kartaning mashtabini aniqlang.